



FUQAROLARNING XUQUQLARINI HIMOYA QILISHDA QONUNCHILIKNI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Yo`ldoshev Husniddin G`ayratbek o`gli

Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti

Milliy g`oya ma`naviyat asoslari va huquq ta`lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589502>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada inson huquqlarini himoya qilish mexanizmi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson huquqlarini himoya qilish shart sharoitlari batafsil bayon etilgan. Inson huquqlarining normativ-huquqiy asosida rivojlanib borishini bunday avlodlarga bo'lib o'rganish ularni tizimlashtirishga, mohiyati va huquqiy kuchini to'g'ri tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: huquq, burch, konstitutsiya, qonun, erkinlik : Inson huquqlari avlodlari, bill, konstitutsiya, huquqlari, erkinliklari, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy mexanizm,

ABSTRACT: This article describes in detail the mechanism of protection of human rights, the conditions for the protection of human rights in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. The study of the development of human rights on a legal basis for such generations allows them to be systematized, to understand their essence and legal force.

Keywords: law, duty, constitution, law, freedom: Generations of human rights, bill, constitution, rights, freedoms, normative legal acts, legal mechanism

Inson jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida davlat qonunlarida mustahkamlangan o'z huquqi, erkinligi va burchlarini amalga oshirishi bilan qatnashadi. Jamiyat va davlat insonning huquqi va erkinligi, uning shani va qadr qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etadi. Bu bosh qomusimizning 13-moddasida o'z aksini topgan. Unga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, unga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi".¹ Konstitutsiya inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlanishini birinchi o'ringa qo'yadi, shaxsning ma'muriybuyruqbozlik tizimining bir muruvvati, belgilangan maqsadga erishishning oddiygina bir vositasi deb hisoblamaydi. "Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar har bir shaxs va o'zbekistonning har bir fuqarosi uchun taalluqlidir. Asosiy huquq, erkinlik va burchlarning o'ziga



xos xususiyati shundaki, ular hech bir istisnosiz har bir kishi yoki har bir fuqaro uchun teng va birdir. Davlat u yoki bu asosiy huquqni tan olishida ularni hamma tomonidan amalga oshirish imkoniyatining huquqiy zaminini yaratadi.” O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. Konstitutsiyamizning shaxs yoki fuqaroning huquq va erkinliklari haqidagi bobi aniq huquq va erkinliklarga bag‘ishlangan bo‘lib, undagi moddalar mantiqiy tizimni tashkil etadi. Bular huquq va erkinliklarning, shaxs va fuqarolar turmush darajalarining o‘ziga xos xususiyatlarini ifoda etadi. Mana shu belgilarga asoslanib konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarni uch guruhga: a)shaxsiy; b) siyosiy; d) ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarga bo‘lish mumkin. Shaxsiy huquq va erkinliklar inson erkinligining asosiy jabhalarini qamrab oladi, kishining jamiyatdagi turmushi, yashash va faoliyat ko‘rsatish asoslarini ifodalaydi, uning shaxsiy hayotini, xususiy erkinliklarini turli xildagi aralshuvlardan himoya qiladi. Inson hayoti-qonun tomonidan qo‘riqlanadigan oliy ijtimoiy ahamiyatga molik qadriyatdir.

Yangi davrda inson huquqlarining rivojlanishi, uning normativ shaklini kasb etishini va ko‘proq shu asnoda rivojlanishi bilan ham o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Bu xususiyat esa, odatda, “Inson huquqlari” fanida “inson huquqlari avlodlari” nomi bilan mashhur. Ijtimoiy hayotning turli sohalari bo‘yicha insonga tegishli bo‘lgan moddiy huquqlarning turlarini inson huquqlari kategoriyalari sifatida tushunamiz.

Har bir shaxs o‘zining siyosiy tashkilotlar yoki jamoat birlashmalariga a‘zo bo‘lish huquqidan qanchalik samarali foydalansa, bu uning siyosiy jihatdan yetuk bo‘lishida muhim ahamiyatga ega. Insonning siyosiy tashkilotlar va jamoat birlashmalaridagi faol ishtiroki uning o‘zligini anglash va himoya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Siyosiy huquqlarda insonning ijtimoiy tengligi o‘z aksini topadi. Barcha fuqarolarning siyosiy huquqlardan samarali foydalanish imkoniyatlari bunday tenglikning amaliy ifodasidir.

Demak, inson huquqlari deganda, insonning muayyan huquqlarining unga tegishliligini va huquqlarini ta‘minlab berilishi va ularga rioya etilishi lozimligi to‘g‘risida normativ-huquqiy hujjatlarda mustahamkamlana boshlanishi hamda ularni himoya qilish uchun huquqiy mexanizmlar yaratilishi bilan bog‘liq davrlarni tushunamiz. Inson huquqlarining normativ-huquqiy asosida rivojlanib borishini bunday avlodlarga bo‘lib o‘rganish ularni tizimlashtirishga, mohiyati va huquqiy kuchini to‘g‘ri tushunishga imkon beradi.



Talim inson shaxsining to'la rivojlanishiga va uning hurmatini joyiga qo'yishga qaratilishi, har kim jamiyatning foyda keltiruvchi erkin ishtirokchisi bo'lishiga imkon yaratib berishi, barcha xalqlar, irqar, etnik va diniy guruhlar o'rtasida do'stlik va hurmatini qaror toptirishga ko'maklashishi zarur. Ta'li, to'g'risidagi qonunning 4-moddasiga muvofiq har kimning kelib chiqishi, jinsi, jinsi, tili, Yoshi, irqi, milliy mansubligidan, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy ahvoli, mashg'ulotlat turi, respublika hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'iy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi".6 Har bir fuqaro huquq va erkinliklardan unumli foydalanib, o'z vaqtida konstitutsiyada belgilab qo'yilgan burchlarini vijdonan bajarsa davlat, jamiyat, xalq manfaatlariga putur yetmaydi. Biz ko'zlagan" Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish" g'oyasini to'la ravishga jamiyat hayotiga tatbiq etamiz.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iq-tisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan (18— 52-moddalar). O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar (18-modda). Jumladan, yashash huquqi — har bir insonning uzviy huquqi. Inson hayotiga suiqasd qilish — eng og'ir jinoyat hisoblanadi (24-modda).

Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim konunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi; qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas (25—26-moddalar). Har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalanih va turar joyi daxlsizligi huquqiga; fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi xuquqiga ega (27—29-moddalar). Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xoh-lagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi (31-modda).

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda Inson huquqlari va erkinliklarining ustunligidan kelib chiqadigan, xalqaro miq-yosda qabul qilingan yangi yuridik ta-moyil va talablarga asoslangan keng hukuqiy muhit vujudga keltirildi. Totalitar tuzumning tazyiq va zo'ravonligidan hukuqiy



me'yorlar sari keskin burilish yasaldi. Respublika qonunlarini Inson huquqlari sohasidagi xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiklashtirish, mazkur sohada Milliy harakat dasturini ishlab chiqish, Inson huquqlarini himoya qiladigan muassasalarning yaxlit tizimini barpo etish, Inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar va hujjatlarga qo'shilishda davom etib, bu hujjatlar bo'yicha majburiyatlarni bajarishning, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolar shu hujjatlar talablariga so'zsiz rioya qilishining mexanizmi yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan norma va prinsiplar demokratik huquqiy davlat qurish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Nafaqat qabul qilingan, balki hozirgi kunda tayyorlanayotgan, qabul qilinishi kutilayotgan «Jamoatchilik nazorati to'g'risida», «Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida», «Davlat boshqaruvi asoslari to'g'risida», «Yarashtiruv jarayonlari (mediatsiya) to'g'risida», «Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida», «Mehnat migratsiyasi to'g'risida», «Aholi bandligiga ko'maklashish nodavlat tashkilotlari (rekruting agentliklari) to'g'risida» gi qonunlar ham Konstitutsiyamiz ko'zda tutgan – inson manfaatlariga yo'naltirilgandir.

Fikrimizcha, erishilgan bunday marralar biz o'z oldimizga qo'ygan yuksak maqsadga qaratilgan uzoq va murakkab yo'lning bir qismi, Konstitutsiyamizda nazarda tutilgan g'oyalari esa demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sari to'xtovsiz harakat qilishni, buning uchun esa Asosiy qomusimizda belgilangan barcha ezgu g'oyalarni to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun uni yanada sinchkovlik bilan o'rganishimiz, inson manfaatlarini ta'minlash nuqtai nazaridan qonunchiligimizni muttasil takomillashtirib borishimiz, har birimiz o'z harakatlarimizni qanchalik Konstitutsiya doirasida amalga oshirayotganligimizni muntazam idrok etib borishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2016-y.
2. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotning poydevori T. O'zbekiston. 1998.
3. H.B.Boboyev. Inson huquqlari T. O'zbekiston. 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. O'zbekiston. 2016-y. 16-b



5. I.A.Karimov. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotning poydevori T. O'zbekiston. 1998-y 21-b
6. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. Darslik. - T.: Konsauditinform-Nashr, 2006.
7. Konsitutsiya 3-senrtabr 1791 yil. // Prava chelove: uchebnik xrestomatika/ Pod red A.X.Saidov -T. :UMED, 2001
8. Inson huquqlari darslik ikkinchi nashr Toshkent "Adolat" 2013 2. Saidov A.X.
9. Меликулов, О. Ж., Кодиров, Н. Д., & Баймурадов, Э. С. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ БАРБАРИСА В ФАРМАКОТЕРАПИИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2), 911-913.
10. Meliqulov, O. J., Kodirov, N. D., & Baymuradov, E. S. (2022). 4-XLOR-5, 6-DIMETILTIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING TO'YINGAN GETEROSIKLIK BIRIKMALAR BILAN REAKSIYASI. Ta'lim fidoyilari, 18(5), 285-288.
11. Meliqulov, O. J., & Baymuradov, E. S. (2022). 2H-4-GIDRAZINIL5, 6-DIMETIL TIENO [2, 3-D] PIRIMIDINNING AROMATIK ALDEGIDLAR BILAN REAKSIYASI. Scienceweb academic papers collection.
12. Баймурадов, Э. С., & Койлиева, М. У. (2022). ФИТОТЕРАПИЯ ПРИ ЛЕЧЕНИИ САХАРНОГО ДИАБЕТА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(Special Issue 4-2).
13. Qodirov, N. D., Qo'Yliyeva, M. U., & Boymurodov, E. S. (2021). DORILAR HAQIDA TUSHUNCHA, FARMAKALOGIK XOSSALARI, SAQLASH UCHUN SHAROIT YARATISH USULLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(8), 580-586.